

Xalqaro Nordik universitetida “Milliy qadriyatlar sayli” va “Ma’rifat ulashib” loyihalari doirasida amalga oshirilgan ishlar xususida MA’LUMOTNOMA

Xalqaro Nordik universitetida 8-oktyabrda o‘tkazilgan yig‘ilishda belgilangan vazifalar ijrosi doirasida 11-oktyabr kuni Adiblar xiyobonida o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishining 35 yilligiga bag‘ishlangan “Milliy qadriyatlar sayli” madaniy-ma’rifiy tadbiri o‘tkazildi.

“Ma’rifat ulashib” loyihasi doirasidagi ushbu anjumanda Xalqaro Nordik universiteti ustozlari va talabalari, Yozuvchilar uyushmasi a’zolari ishtirok etdilar.


Tadbir avvalida ulug‘ adib, shoir, olim, jamoat arbobi Oybek haykali poyiga gullar qo‘yildi. Talaba-yoshlar bilan adabiy-ma’rifiy suhbat o‘tkazildi.

XNU rektori, professor Sherzod Mustafakulov atoqli adib Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybekning XX asr o‘zbek adabiyotiga qo‘shgan bebaho hissasi, shaxsiyati va ijodiyotiga chizgilar berib o‘tdi. Adibning o‘zbek millatining uyg‘onishi va g‘oyaviy yuksalishidagi o‘rniga keng to‘xtaldi.

Anjumanda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, iste’dodli noshir, “Do‘stlik” va “Mehnat shuhrati” ordenlari sohibi Shoim Bo‘tayevning adabiyotning talaba-yoshlar dunyoqarashini yuksaltirishdagi ahamiyatiga bag‘ishlangan ma’ruzasi tinglandi.

XNU dotsenti, shoira Sitorabonu Shomurodova Oybekning go‘zal she’riyati, yetuk romannavistligi borasida o‘z mushohadalarini yoshlarga yetkazdi, satrlaridan namunalar keltirdi. Musiqa ta’limi yo‘nalishi talabalari o‘z badiiy chiqishlarida Oybek qalamiga mansub she’rlarga nazar soldilar.

Talaba-yoshlar uchun “Zakovat” intellektual o‘yini uyushtirilib, ishtirokchilarning adabiy bilimlari sinovdan o‘tkazildi. Tadbir milliy urf-odat va qadriyatlarga uyg‘un tarzda o‘tkazildi. “Nordik” ansambli ijrosida kuy-qo‘shiqlar jarang sochib turdi. Tadbir tafsilotlari universitetning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari va Uzreport TV kanalida keng ommaga yetkazildi.





**Sh.Adilxodjayev,
XNU rektori maslahatchisi**